

YANGI O'ZBEK SHE'RIYATIDA FARDNING SHAKL VA MAZMUN YANGILANISHI (G'ULOM SHOMUROD IJODI MISOLIDA)

Nazarova Dildora Ilhomovna
Buxoro davlat tibbiyot instituti
filologiya fanlari bo'yicha falsafa
doktori(PhD), dotsent

Annotatsiya: Mazkur maqolada yangi o'zbek she'riyatida fard janrining o'rni, badiiy-estetik xususiyatlari hamda taraqqiyot bosqichlari tahlil qilinadi. Fardning mumtoz adabiyotdagi ildizlari va uning zamonaviy she'riyatda mazmun hamda shakl jihatidan yangilanish jarayonlari yoritiladi. Shuningdek, yangi davr ijodkorlari tomonidan fard janrida ilgari surilgan g'oyaviy yo'nalishlar, obrazlilik, poetik ifoda vositalari va individual uslub masalalari ko'rib chiqiladi. Tadqiqot natijalari fard janrining yangi o'zbek she'riyatida an'ana va innovatsiya uyg'unligida rivojlanayotganini ko'rsatadi.

Kalit so'zlar: yangi o'zbek she'riyati, fard janri, mumtoz an'ana, janriy taraqqiyot, badiiy-estetik tafakkur, poetik ifoda, obrazlilik, shakl va mazmun, an'ana va innovatsiya, individual uslub.

ОБНОВЛЕНИЕ ФОРМЫ И СОДЕРЖАНИЯ ФАРД В НОВОЙ УЗБЕКСКОЙ ПОЭЗИИ (НА ПРИМЕРЕ ТВОРЧЕСТВА ГУЛОМА ШОМУРОДА)

Назарова Дилдора Илхомовна
Бухарский государственный медицинский институт
Доктор философии (PhD) по филологическим наукам, доцент

Аннотация: В данной статье анализируется роль фард-жанра в новой узбекской поэзии, его художественно-эстетические особенности и этапы развития. Освещаются корни фарда в классической литературе и процессы обновления его содержания и формы в современной поэзии. Также рассматриваются идейные направления, образность, поэтические средства выражения и вопросы индивидуального стиля, предложенные современными авторами в жанре фард. Результаты исследования показывают, что фард в новой узбекской поэзии развивается в единстве традиции и инновации.

Ключевые слова: новая узбекская поэзия, жанр фард, классическая традиция, жанровое развитие, художественно-эстетическое мышление, поэтическое выражение, образность, форма и содержание, традиция и инновация, индивидуальный стиль.

**FORMAL AND CONTENT INNOVATIONS OF THE FARD GENRE IN
MODERN UZBEK POETRY (ILLUSTRATED BY THE WORKS OF
G'ULOM SHOMUROD)**

Nazarova Dildora Ilhomovna

Bukhara State Medical Institute

**Doctor of Philosophy (PhD) in Philological
Sciences, Associate Professor**

Abstract: This article analyzes the role of the fard genre in modern Uzbek poetry, its artistic and aesthetic features, and stages of development. The roots of the fard in classical literature and the processes of updating its content and form in contemporary poetry are highlighted. Additionally, the ideological directions, imagery, poetic expressive means, and issues of individual style presented by modern writers in the fard genre are examined. The research findings show that the fard genre in modern Uzbek poetry develops through the integration of tradition and innovation.

Keywords: modern Uzbek poetry, fard genre, classical tradition, genre development, artistic-aesthetic thinking, poetic expression, imagery, form and content, tradition and innovation, individual style.

Ulkan san'atkor Abdulla Qahhor: "Ikki satr she'rda berilgan fikrni ming xil qilib aytsa bo'ladi, lekin bu ming xil variantning hech qaysisi shu ikki satrday ham sodda, ham qisqa, ham kuchli, ham tas'irli bo'lolmaydi", – deb yozadi¹.

Buxorolik shoir G'ulom Shomurod ham mumtoz nazm an'alarini e'zozlab, ularni saqlab qolish yo'lida zahmat chekkan ijodkorlardan biridir. Uning ijodida ham ikkiliklar, ham fardlar alohida o'rin tutgan. Shoir fardlarida visolga yetishgach chiroqdan kuygan parvona (Parvona o'rtanib hajru firoqdan, Visolga yetishgach kuyar chiroqdan), yuzi oy va quyoshdan ziyoda ma'shuqa yor (Yuzingni o'xshatsam oyga,

¹ Абдулла Қаҳҳор. Асарлар. Олти томлик, 6-том. – Т., 1971. – Б. 233.

mohitob, Ruxsori men kabi, dedi ofitob), pardasiga o‘ralib olgan iboli makkajo‘xori (Makkajo‘xori juda iboli, Pardasini olib qilma havoli), qalamni tinglab, uning sirlarini oshkor etgan qog‘oz (Qog‘oz tinglab, qalamni rosa, Gaplarini etdi ovoza) tavsifi va boshqalar haqida so‘z yuritilgan. Ayniqsa, shoirning insoniy sifatlarni ulug‘lab aytgan fardlari ko‘pchilikni tashkil qiladi. Shoir ortiqcha mag‘rurlanish, kekkayish yaramaslikni ta’kidlab shunday deydi:

Mag‘rur bo‘lma buncha terakdek,
Hamma uchun zarur kerakdek².

Quyidagi fardda shoir it – bo‘ri – qo‘y so‘zlari orqali tazod yaratib, har bir narsaning kushandasi borligidan ogoh etgan:

Itlarga talanib, bo‘ri yiqildi,
Qo‘ylarga azob ekanin bildi³.

Shoir fardlari orasida boshga tushgan darddan nolimaslikka, sabr-bardoshli bo‘lishga undash uchun dardman // bedard (Dardman bo‘lsang darddan nolima, Achin, bedardlarning holiga), ishonch va ishonchsizlikni ifodalash maqsadida yuksak tog‘ va kichik gard (Senga-ku, ishonchim edi tog‘ misol, Afsuski kemirib etding gard nuqson), to‘g‘risizlikni ulug‘lash niyatida chin, rost va yolg‘on, yaxshi va yomon, qish va yoz, achchiq va shirin so‘zlarini (Endi bilsam, gaping chinu rostidan: Yolg‘onchilik o‘tgan onang sutidan. Yomon so‘z-la but bo‘lmas ish, Yaxshi so‘z-la yoz bo‘lur qish. Agar bilsang har nening sirin, Aytolasan ne talx, ne shirin) o‘zaro zid qilib olib, tazod san‘atini vujudga keltirgani kuzatiladi. Shu orqali u o‘z fardlarining mazmuni ta’sirchanligini oshirishga erishgan. Xususan, shoir inson sifatlarini tavsiflash uchun rahmon va shaytonni zidlantirishi alohida e’tiborni tortadi:

Sifatidir: odamga yaxshi yomon,
Birin rahmon bergan, birisin shayton⁴.

Shoir yana saxiy va baxilni (“Saxiy bo‘lsang, moling to‘lib toshadi, Baxil bo‘lsang, boring sendan qochadi), yaxshilik va yomonlikni (“Yaxshilikdan qolar nek xotira, Yomonlikdan ko‘nglingga yara”, donolik va befahmlikni (“Donomisam va yoki befahm, So‘z lutfingdan ayonsan, odam”) o‘zaro zidlantirib, kitobxonni ezguliklar sari chorlaydi.

² Ғулом Шомурод. Марварид доналар. – Бухоро: Бухоро, 2008. – Б.67.

³ O‘sha manba. – B. 69.

⁴ O‘sha manba. – B. 69.

Gʻulom Shomurod fardlarida oʻxshatish ham alohida oʻringa ega. Masalan, shoir saxiylikni yoʻlga oʻxshatgan boʻlsa (Saxiylikda tengsiz ekan yoʻl – Qarang, unda ochiq ikki qoʻl), chumolining yuk tashish quvvatini filga menzaydi (Chumolining beli nozik fil kabi, Yuk tashishda lekin ishlar fil kabi). Shoir taʼkilashicha, inson kuch-qudrati uning suhbatida namoyon boʻladi: “Kuching kam – koʻpligin gʻayrating aytur, Aqling kam koʻpliging suhbating aytur). Negaki, baʼzi kimsalarning, shoir aytganidek: “Qoyilmasku hech kim ishiga, Aql boʻlar hamma kishiga).

Shoir yerda yotgan zaʼfaron yaproqqa qarab, umr oʻtkinchiligini, barcha kishilar bir kun kelib tuproqqa evrilishini eslatadi (Yerda yotgan zafaron yaproq, Oʻksimagin aslimiz tuproq) yoki “Bir dono bir gapni koʻp takror aytar: Yaxshilik oʻzingga albatta, qaytar”, “Kuz kelib, yaproqlar boʻlsa zafaron, Nega maʼyus sezar oʻzini inson” deya ogohlantiradi.

Boshqa zamonaviy fardnafis shoirlar kabi Gʻulom Shomurod ham oʻzining bu janr namunalarida maqollardan irsoli masal sifatida foylanganini koʻrish mumkin:

Yerga ne sepsang, shuni oʻrasan,
Kimga ne etsang, shuni koʻrasan⁵.

Fardlaridan birida shoir mansabparastlikni qoralab, shunday deydi:

Kursim baland deya uraversang doʻq, –
Demak, kursinga mos farosating yoʻq⁶.

Xususan, molparastlikni, badnafslilikni qoralash (“Koʻp, behad mol tashvish, gʻam keltirar, Va aksi hol, ajal ham keltirar”, “Gʻamni yengur na mol, na davlat, Uni yengur sabr va toqat”, “Bunchalar erk bermasang nafsga, Tushmas eding temir qafasga”, “Nafsingni erkalatsang quturadi, Oʻzgagamas oʻzingga uradi”), mehnatsevarlikni ulugʻlash (“Izzat koʻrsang hurmating sabab, Rohat koʻrsang mehnating sabab”), ilm olish va odoblilikni targʻib etish (“Olloh bergan neʼmatning sanogʻi yoʻq, Ilmu hikmat, adabning adogʻi yoʻq”, “Agar boʻlsang, mulozim, Qil ishni unga lozim”, “Mehru gʻazab, jaholat va adolat qoʻlingda, Oliy jonzot insonsan, hamma holat qoʻlingda”, “Zolimga bor Olloh jazosi: Obod boʻlmas ikki dunyosi”, “Suratingni koʻrib deydilar: mullo! Siyratinni koʻrib: astafurilloh”. “Koʻrdim, yomonmas shakilu shamoling, Bundan ayonmas aqlu kamoling”, “Senga hech kim

⁵ Oʻsha manba. – B. 69.

⁶ Oʻsha manba. – B. 69.

berolmas madad, Yuraginga bordir hasad”. “Astag‘furullo, deb qaytar g‘zabni, Bu bilan asraysan yurak, asabni!”), do‘stlik va mehr-oqibatni (Otni derlar pari, dev, lekin – Insonga do‘st ekanligi chin”, “Ko‘rsataver itga ham shafqat, Savobini ko‘rasan albat!”, vatanparvarlikni (“Kindik qoni qaydagi tomgan, Cho‘l bo‘lsa ham – uningchun chaman”) madh etish shoir fardlarining mazmun-mundarijasini tashkil etadi.

Bizningcha, shoir G‘ulom Shomurod o‘z fardlarini barmoq vaznida yaratgani uchun ularni farddan ko‘ra ikkilikka yaqin turadi, deyish mumkin.

Umuman olganda, yangi o‘zbek she‘riyatida “fard” nomi ostida berilgan she‘rlar to‘la ma’noda mumtoz adabiyotdagi shunday janr talablariga, spesifikasiga muvofiq kelmaydi. Binobarin, shaklan aruzda yozilmagan. Mazmunan ham kengaygan. Buni mumtoz adabiyotga ergashish yo‘lidagi ijodiy izlanish sifatida baholash mumkin. Ularni fard deb emas, barmoqdagi ikkiliklar deb talqin qilsa bo‘ladi. Turob To‘la ikkiliklarida falsafiy-axloqiy mazmun yetakchilik qiladi. Jumaniyoz Jabborov fardlarining o‘ziga xosligi shundaki, ularning ko‘pchiligida tuyuqqa xos qofiya o‘rnida omonim va omonimsifat so‘zlarning kelishi bilan bog‘liq. Qolaversa, bunda “barmoqlashish” va “gibridlik” xususiyatlari ham kuzatiladi. Vosit Sa’dulla tuyuq-fardlar yaratgan bo‘lsa, G‘ulom Shomurodning shu janrdagi izlanishlari barmoq vaznida yaratilgan.

Buxorolik shoir G‘ulom Shomurod ham mumtoz nazm an‘analarini e‘zozlab, ularni saqlab qolish yo‘lida zahmat chekkan ijodkorlardan biridir. Uning ijodida ham ikkiliklar, ham fardlar alohida o‘rin tutgan. Shoir fardlarida visolga yetishgach chiroqdan kuygan parvona (Parvona o‘rtanib hajru firoqdan, Visolga yetishgach kuyar chiroqdan), yuzi oy va quyoshdan ziyoda ma‘shuqa yor (Yuzingni o‘xshatsam oyga, mohitob, Ruxsori men kabi, dedi ofitob), pardasiga o‘ralib olgan iboli makkajo‘xori (Makkajo‘xori juda iboli, Pardasini olib qilma havoli), qalamni tinglab, uning sirlarini oshkor etgan qog‘oz (Qog‘oz tinglab, qalamni rosa, Gaplarini etdi ovoza) tavsifi va boshqalar haqida so‘z yuritilgan. Ayniqsa, shoirning insoniy sifatlarni ulug‘lab aytgan fardlari ko‘pchilikni tashkil qiladi. Shoir ortiqcha mag‘rurlanish, kekkayish yaramaslikni ta’kidlab shunday deydi:

Mag‘rur bo‘lma buncha terakdek,
Hamma uchun zarur kerakdek⁷.

⁷ Фулом Шомурод. Марварид доналар. – Бухоро: Бухоро, 2008. – Б.67.

Quyidagi fardda shoir it – bo‘ri – qo‘y so‘zlari orqali tazod yaratib, har bir narsaning kushandasi borligidan ogoh etgan:

Itlarga talanib, bo‘ri yiqildi,
Qo‘ylarga azob ekanin bildi⁸.

Shoir fardlari orasida boshga tushgan darddan nolimaslikka, sabr-bardoshli bo‘lishga undash uchun dardman // bedard (Dardman bo‘lsang darddan nolima, Achin, bedardlarning holiga), ishonch va ishonchsizlikni ifodalash maqsadida yuksak tog‘ va kichik gard (Senga-ku, ishonchim edi tog‘ misol, Afsuski kemirib etding gard nuqson), to‘g‘risizlikni ulug‘lash niyatida chin, rost va yolg‘on, yaxshi va yomon, qish va yoz, achchiq va shirin so‘zlarini (Endi bilsam, gaping chinu rostidan: Yolg‘onchilik o‘tgan onang sutidan. Yomon so‘z-la but bo‘lmas ish, Yaxshi so‘z-la yoz bo‘lur qish. Agar bilsang har nening sirin, Aytolasan ne talx, ne shirin) o‘zaro zid qilib olib, tazod san‘atini vujudga keltirgani kuzatiladi. Shu orqali u o‘z fardlarining mazmuni ta’sirchanligini oshirishga erishgan. Xususan, shoir inson sifatlarini tavsiflash uchun rahmon va shaytonni zidlantirishi alohida e’tiborni tortadi:

Sifatidir: odamga yaxshi yomon,
Birin rahmon bergan, birisin shayton⁹.

Shoir yana saxiy va baxilni (“Saxiy bo‘lsang, moling to‘lib toshadi, Baxil bo‘lsang, boring sendan qochadi), yaxshilik va yomonlikni (“Yaxshilikdan qolar nek xotira, Yomonlikdan ko‘nglingga yara”, donolik va befahmlikni (“Donomisam va yoki befahm, So‘z lutfingdan ayonsan, odam”) o‘zaro zidlantirib, kitobxonni ezguliklar sari chorlaydi.

G‘ulom Shomurod fardlarida o‘xshatish ham alohida o‘ringa ega. Masalan, shoir saxiylikni yo‘lga o‘xshatgan bo‘lsa (Saxiylikda tengsiz ekan yo‘l – Qarang, unda ochiq ikki qo‘l), chumolining yuk tashish quvvatini filga menzaydi (Chumolining beli nozik fil kabi, Yuk tashishda lekin ishlar fil kabi). Shoir ta’kilashicha, inson kuch-qudrati uning suhbatida namoyon bo‘ladi: “Kuching kam – ko‘pligin g‘ayrating aytur, Aqling kam ko‘pliging suhbating aytur). Negaki, ba’zi kimsalarning, shoir aytganidek: “Qoyilmasku hech kim ishiga, Aql bo‘lar hamma kishiga).

⁸ O‘sha manba. – B. 69.

⁹ O‘sha manba. – B. 69.

Shoir yerda yotgan za'faron yaproqqa qarab, umr o'tkinchiligini, barcha kishilar bir kun kelib tuproqqa evrilishini eslatadi (Yerda yotgan zafaron yaproq, O'ksimagin aslimiz tuproq) yoki "Bir dono bir gapni ko'p takror aytar: Yaxshilik o'zingga albatta, qaytar", "Kuz kelib, yaproqlar bo'lsa zafaron, Nega ma'yus sezar o'zini inson" deya ogohlantiradi.

Boshqa zamonaviy fardnafis shoirlar kabi G'ulom Shomurod ham o'zining bu janr namunalarida maqollardan irsoli masal sifatida foylanganini ko'rish mumkin:

Yerga ne sepsang, shuni o'rasan,
Kimga ne etsang, shuni ko'rasan¹⁰.

Fardlaridan birida shoir mansabparastlikni qoralab, shunday deydi:

Kursim baland deya uraversang do'q, –
Demak, kursinga mos farosating yo'q¹¹.

Xususan, molparastlikni, badnafslilikni qoralash ("Ko'p, behad mol tashvish, g'am keltirar, Va aksi hol, ajal ham keltirar", "G'amni yengur na mol, na davlat, Uni yengur sabr va toqat", "Bunchalar erk bermasang nafsga, Tushmas eding temir qafasga", "Nafsingni erkalatsang quturadi, O'zgagamas o'zingga uradi"), mehnatsevarlikni ulug'lash ("Izzat ko'rsang hurmating sabab, Rohat ko'rsang mehnating sabab"), ilm olish va odoblilikni targ'ib etish ("Olloh bergan ne'matning sanog'i yo'q, Ilmu hikmat, adabning adog'i yo'q", "Agar bo'lsang, mulozim, Qil ishni unga lozim", "Mehru g'azab, jaholat va adolat qo'lingda, Oliy jonzot insonsan, hamma holat qo'lingda", "Zolinga bor Olloh jazosi: Obod bo'lmas ikki dunyosi", "Suratingni ko'rib deydilar: mullo! Siyratinni ko'rib: astafurilloh". "Ko'rdim, yomonmas shakilu shamoling, Bundan ayonmas aqlu kamoling", "Senga hech kim berolmas madad, Yuraginga bordir hasad". "Astag'furullo, deb qaytar g'zabni, Bu bilan asraysan yurak, asabni!"), do'stlik va mehr-oqibatni (Otni derlar pari, dev, lekin – Insonga do'st ekanligi chin", "Ko'rsataver itga ham shafqat, Savobini ko'rasan albat!", vatanparvarlikni ("Kindik qoni qaydagi tomgan, Cho'l bo'lsa ham – uningchun chaman") madh etish shoir fardlarining mazmun-mundarijasini tashkil etadi.

Bizningcha, shoir G'ulom Shomurod o'z fardlarini barmoq vaznida yaratgani uchun ularni farddan ko'ra ikkilikka yaqin turadi, deyish mumkin.

¹⁰ O'sha manba. – B. 69.

¹¹ O'sha manba. – B. 69.

Umuman olganda, yangi o‘zbek she’riyatida “fard” nomi ostida berilgan she’rlar to‘la ma’noda mumtoz adabiyotdagi shunday janr talablariga, spesifikasiga muvofiq kelmaydi. Binobarin, shaklan aruzda yozilmagan. Mazmunan ham kengaygan. Buni mumtoz adabiyotga ergashish yo‘lidagi ijodiy izlanish sifatida baholash mumkin. Ularni fard deb emas, barmoqdagi ikkiliklar deb talqin qilsa bo‘ladi. Turob To‘la ikkiliklarida falsafiy-axloqiy mazmun yetakchilik qiladi. Jumaniyoz Jabborov fardlarining o‘ziga xosligi shundaki, ularning ko‘pchiligida tuyuqqa xos qofiya o‘rnida omonim va omonimsifat so‘zlarning kelishi bilan bog‘liq. Qolaversa, bunda “barmoqlashish” va “gibridlik” xususiyatlari ham kuzatiladi. Vosit Sa’dulla tuyuq-fardlar yaratgan bo‘lsa, G‘ulom Shomurodning shu janrdagi izlanishlari barmoq vaznida yaratilgan.

Adabiyotlar

1. Абдулла Қаҳҳор. Асарлар. Олти томлик, 6-том. – Т., 1971. – Б. 233.
2. Ғулом Шомурод. Марварид доналар. – Бухоро: Бухоро, 2008. – Б.67.
3. Karimov N. XX asr o‘zbek adabiyoti tarixi. – Toshkent: O‘qituvchi, 1999. – 320 b.